Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning PISA xalqaro baholash dasturlaridagi tabiiy fan yo'nalishidagi topshiriqlarni bajarish natijadorligini oshirish masalasi yoritilgan. Global-lashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarb va keng qamrovli zamonaviy talablarni qo'yimoqda. Olamshumul strategik maqsadlarga erishish, yangi marralarni zabt etish, rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatlarda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar hamda mutaxassislarining o'rni beqiyosdir. PISA xalqaro baholash dasturining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlaridagi talablar doirasida o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi. Biroq xalqaro baholash dasturlari, xususan PISA natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar ilmiy tushunchalarni real hayotiy vaziyatlarga qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Maqolada so'rovga asoslangan ta'lim (inquiry-based learning) va loyiha asosidagi faoliyat uyg'unlashtirilib, o'quvchilarning ilmiy savollar qo'yish, oddiy tajribalarni loyihalash va ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tadqiqotchilik ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini, tanqidiy fikrlashini va PISA tipidagi topshiriqlarga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, ushbu maqolada o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmasini rivojlantiruvchi "3I", "Savollar piramidasi" va "Bilimlar ko'prigi" metodlari haqida fikr yuritilib, tabiiy fanlar bo'yicha topshiriq namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik ko'nikmasi, so'rovga asoslangan ta'lim, ilmiy savol, izlanish, ishlab chiqish, piramida, bilimlar ko'prigi, 3I.

Abstract: This article examines the issue of improving students' performance on science assignments in the PISA international assessment programs through the development of research skills. The rapidly developing era of globalization places modern demands on the state and society, the relevance and scale of which are growing every day. To achieve global strategic goals, reach new heights, and join the ranks of developed countries, the role of highly qualified, experienced, and forward-thinking personnel and specialists is invaluable. The PISA international assessment program evaluates students' ability to apply acquired knowledge and skills in real-life situations and to think and communicate effectively.

However, international assessment programs, particularly PISA results, show that many students have difficulty applying scientific concepts to real-life situations within the framework of educational program requirements in countries around the world. The study combined inquiry-based learning and project-based activities, focusing on developing students' skills in asking scientific questions, designing simple experiments, and analyzing data. The results showed that systematic development of research skills significantly improves students' problem-solving ability, critical thinking, and confidence in completing PISA-type tasks. The article also discusses the "3I", "Question Pyramid", and "Knowledge Bridge" methods that develop students' research skills and provides examples of science assignments.

Key words: research skills, inquiry-based learning, scientific question, research, development, pyramid, knowledge bridge, 3I.



Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос повышения эффективности выполнения учащимися заданий по естественным наукам в рамках международных программ оценки PISA посредством развития исследовательских навыков. Стремительно развивающаяся эпоха в условиях глобализации предъявляет государству и обществу современные требования, актуальность и масштаб которых возрастают с каждым днём. Для достижения глобальных стратегических целей, покорения новых высот и вхождения в число развитых стран неопределима роль высококвалифицированных, опытных и современно мыслящих кадров и специалистов. По результатам международной программы оценки PISA оценивается способность учащихся применять полученные знания и навыки в реальных жизненных ситуациях, мыслить и общаться в рамках требований образовательных программ стран мира.

Однако международные программы оценки, в частности результаты PISA, показывают, что многие учащиеся испытывают трудности с применением научных концепций в реальных жизненных ситуациях. Исследование сочетало исследовательское обучение и проектную деятельность, уделяя особое внимание развитию у учащихся навыков постановки научных вопросов, разработки простых экспериментов и анализа данных. Результаты показали, что систематическое развитие исследовательских навыков значительно повышает у учащихся способность решать проблемы, критическое мышление и уверенность в выполнении заданий типа PISA. В статье также рассматриваются методы “ЗИ”, “Пирамида вопросов” и “Мост знаний”, развивающие у учащихся исследовательские навыки, а также приводятся примеры заданий по естественным наукам.

Ключевые слова: исследовательские навыки, исследовательское обучение, научный вопрос, исследование, развитие, пирамида, мост знаний, ЗИ.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri – bu o'quvchilarning egallagan bilimlari, ularning kundalik hayotda amaliy qo'llanish darajasi va mustaqil fikrlash qobiliyatidir. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro baholash dasturlari, xususan, OECD PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari bugungi kunda jahon hamjamiyatida katta e'tibor markazida turibdi. PISA tadqiqotlari orqali 15 yoshli o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligi baholanadi [1]. Bunda nafaqat o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlari, balki ularning olgan nazariy bilimlarini real hayotdagi muammolarni hal qilishda qo'llay olish darajasi ham tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv ta'lim tizimini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar bilan boyitishga undaydi.

O'zbekiston ham PISA baholashida ishtirok etayotgan mamlakatlar qatoriga kirib, o'z o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi va global standartlarga moslashuvchanligini baholash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mazkur tadqiqotlar natijalari o'quvchilarning bilim sifati, mantiqiy tafakkuri, savodxonlik darajasi hamda ta'limdagi ayrim muammolarni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada PISA tadqiqotlarining mohiyati, O'zbekiston o'quvchilari natijalari hamda o'quv yutuqlarini baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar keng yoritiladi. Shuningdek, xalqaro ilg'or tajriba tahlil qilinib, uni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. PISA (Programme for International Student Assessment) – bu Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 2000-yildan beri har uch yilda bir marta o'tkazilib kelinayotgan xalqaro ta'lim baholash dasturidir. Uning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchilarning asosiy fanlardagi bilim va ko'nikmalarini real hayotdagi vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini aniqlashdir [2]. PISA dasturi uchta asosiy yo'nalishda baholash olib boradi:

O'qish savodxonligi – matnni tushunish, tahlil qilish, asosiy g'oyalarni ajrata olish va o'z fikrini asoslab ifoda eta olish qobiliyati.

Matematik savodxonlik – matematik tushunchalarni real hayotdagi muammolarga tatbiq etish, yechim topish va mantiqiy fikrlash qobiliyati.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik – ilmiy bilimlar asosida atrof-muhit hodisalarini tushuntirish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish malakasi [1].

Bu baholash mezonlari an'anaviy test tizimlaridan farq qiladi. PISA o'quvchilarning yodlangan bilimlarini emas, balki bilimdan amalda foydalana olish darajasini o'lchaydi. Shu sababli, savollar ko'pincha hayotiy holatlarga asoslangan, tahliliy va muammoli shaklda bo'ladi [1].

PISA testlari o'zbek o'quvchilari uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu baholash orqali:

- a) ta'lim tizimidagi bo'shliqlar aniqlanadi;
- b) fanlarni o'qitish metodikasi tahlil qilinadi;
- c) o'quvchilarda mustaqil fikrlash va savodxonlik darajasi o'lchanadi.

Mazkur dastur nafaqat ta'lim tizimining joriy holatini baholaydi, balki uni isloh qilish uchun zarur strategiyalarni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi ilk bor 2022-yilda PISA tadqiqotida ishtirok etdi. Bu tarixiy qadam mamlakat ta'lim tizimining xalqaro baholash mezonlari asosida tahlil qilinishini ta'minladi. Dastlabki natijalar O'zbekiston o'quvchilari uchun bir qator muhim xulosalarni yuzaga chiqardi [4].



O'zbekiston o'quvchilari o'rtacha matematika fani bo'yicha 364 ball to'pladi. Bu OECD o'rtacha ko'rsatkichidan (472 ball) ancha past, o'qish bo'yicha 340–350 atrofida, tabiiy fanlardan esa 350–360 ball oralig'ida. O'quvchilarning katta qismi eng past darajadagi savodxonlik (1-daraja yoki undan past) ko'rsatkichini namoyon etgan. Faqat 14,4% o'quvchi matematika fanidan 2-daraja yoki undan yuqori natijaga erishgan bo'lib, bu funksional savodxonlik darajasining pastligini ko'rsatadi. Biroq o'quvchilar orasida maktab muhiti ijobiy: ko'pchilik o'zini maktabda erkin va xavfsiz his qilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonning PISA baholashiga qo'shilishi ta'limdagi real muammolarni aniqlashga xizmat qilmoqda [5].

Natijalar tahlilidan quyidagi muammolar aniqlanadi: tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarining yetishmasligi; o'quvchilarning murakkab va kontekstli matnlarni tushunish hamda sharhlashda qiynalishi; bilimlarning amaliyotda qo'llanmasligi; nazariy bilimlarga ega bo'lsalar-da, ularni real vaziyatlarga tatbiq etishda sustlik kuzatilishi; savodxonlik darajasining pastligi; o'qish tezligi va aniqligining yetarli emasligi; darsliklar va o'quv metodikasining eskirganligi, an'anaviy yodlashga asoslangan ta'lim uslublarning PISA talablariga mos kelmasligi. PISAda yuqori natijaga erishgan davlatlar – Singapur, Yaponiya, Estoniya, Finlandiya kabi mamlakatlarda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy muammolarni hal qilish va muloqotga kirisha olish ko'nikmalari bolalikdan shakllantiriladi [6].

Ular: a) ta'limda interaktiv va muammoli o'qitish metodlaridan keng foydalanadilar; b) o'quvchilarni test emas, hayotga tayyorlashga e'tibor qaratadilar.

Shu bois, O'zbekiston uchun PISA natijalari tanqid emas, balki o'sish uchun imkon sifatida qaralishi lozim. Ushbu tahlillar asosida ta'lim tizimini takomillashtirish yo'llarini izlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. PISA–2022 natijalari O'zbekiston ta'lim tizimining sifat jihatdan jiddiy islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi. Ustuvor yo'nalishlar sifatida: funksional savodxonlikni oshirish, o'qituvchilar malakasini rivojlantirish, o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish hamda xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish zarur. Bu yo'nalishdagi ishlanmalar keyingi PISA bosqichlarida sezilarli ijobiy natijalar berishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi o'n yilliklarda ilmiy savodxonlik ta'lim sohasidagi tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri bo'lib kelmoqda. OECD (2019) ta'rifi ko'ra, ilmiy savodxonlik faqat ilmiy tushunchalarni bilish bilangina cheklanmay, balki ilmiy izlanish olib borish, dalillarni baholash va bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari yuqori bo'lgan o'quvchilar PISA fan topshiriqlarida yuqoriroq natijalarga erishadilar (Bybee, 2013; Holbrook & Rannikmäe, 2017) [6]. Tadqiqotchilik ko'nikmalari ilmiy savodxonlikni rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Osborne va Dillon (2008) ta'kidlaganidek, o'quvchilarni haqiqiy ilmiy izlanish faoliyatlariga jalb qilish ularning tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi va ilmiy tushunchalarni chuqurroq anglashini rivojlantiradi. Shuningdek, so'rovga asoslangan ta'lim yondashuvlari o'quvchilarning tabiiy fanlarni o'rganishdagi qiziqishi va motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan (Pedaste va boshq., 2015).

Bir qator tadqiqotlarda PISA topshiriqlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalasi o'rganilgan. Masalan, Duit va Treagust (2012) ta'kidlaganidek, PISA topshiriqlari o'quvchilarning bilimlarni amaliy vaziyatlarga qo'llash qobiliyatini baholashda samarali imkoniyat yaratadi [7]. Biroq, agar tadqiqotchilik ko'nikmalari tizimli ravishda rivojlantirilmasa, o'quvchilar bunday topshiriqlarda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

- Mamlakatimizda o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar vositasida ularni xalqaro baholash tadqiqotlariga mos keluvchi ko'nikmalarni rivojlantirish, bu borada metodik va didaktik ta'minotni takomillashtirish muammolari B.R.Adizov, R.Safarova, R.Ibragimov, M.Y.Qurbonova, A.Matkarimov, T.N.Najmitdinova, R.A.Mavlonova, B.X.Raximov, X.P.Nazarova, U.Xodjamqulov;
- Zamonaviy pedagogik yondashuvlar tadqiqi, ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari, xalqaro baholash tadqiqotlari asosida umumiy o'rta ta'lim mazmunini takomillashtirish, xalqaro andozalar va tajribalar asosida ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirish masalalari M.E.Jumayev, M.Y.Yuldasheva, B.U.Mingbayeva, G.A.Mamatov, E.Y.Davletov, M.F.Qurbonova, A.M.Matkarimov;
- Mustaqil ta'limning xususiyatlari, o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik asoslari J.Tolipova, O'.K.Tolipov, Z.Nishonova, E.I.Zakinov, N.Xalilov, Sh.Yunusova, O.A.Qo'ysinov, S.R.Abdalovlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida umumiy o'rta ta'limga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish, o'quvchilarning o'quv-bilish, o'qish va tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish, matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muammolari Y.M.Boxorskiy, I.V.Komarov, V.A.Bolotov, A.N.Daxin, I.D.Frumin, T.I.Shamov, Y.Tatur, S.G.Vorovshikov, T.Y.Xavenson, Y.D.Kersha, G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy,



L.P.Krasnokutskaya, K.A.Krasnyanskaya, V.Y.Stoyunin, V.P.Ostrogorskiy, M.A.Ribnikova, V.V.Golubkov kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy fanlar ta'limiga so'rovga asoslangan va tadqiqotga yo'naltirilgan faoliyatlarni integratsiya qilish PISA tipidagi baholashlarga tayyorgarlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu bilan birga, OECD o'rtacha ko'rsatkichidan past natija ko'rsatgan mamlakatlarda bu yo'nalishda yanada ko'proq kontekstga mos tadqiqotlar o'tkazilishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-metodik yondashuvga asoslanib, so'rovga asoslangan ta'lim va loyiha asosidagi ta'lim elementlarini uyg'unlashtiradi. Metodologiyaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, o'quvchilar tadqiqot jarayonlariga faol jalb etilganda – ya'ni ilmiy savollar qo'yish, gipoteza ilgari surish, tajriba loyihalash, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, natijalarni taqdim etish kabi bosqichlarni bajarish orqali – ularning tadqiqotchilik ko'nikmalari tizimli ravishda rivojlanadi. Tadqiqot quyidagi metodik prinsiplarga tayangan:

- so'rovga asoslangan ta'lim (Inquiry-Based Learning) – o'quvchilar ilmiy savollar qo'yishga, gipoteza tuzishga va ilmiy muammolarni izlanish asosida hal etishga yo'naltiriladi ^[8];
- loyiha asosidagi ta'lim (Project-Based Learning) – o'quvchilar tadqiqot loyihalarida ishtirok etib, rejalashtirish, bajarish va natijalarni taqdim etish bosqichlarini o'tadilar. Bu esa ularning chuqurroq bilim olishlari va uzoq muddatli ishtirokini ta'minlaydi ^[9];
- ilmiy jarayon ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv – metodologiya faqat bilim olishga emas, balki tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish kabi ilmiy savodxonlik uchun muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotning amaliy bosqichida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bir qator innovatsion metodlar qo'llanildi. Asosiy e'tibor o'quvchilarni tabiiy fanlarda izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonlariga faol jalb etishga qaratildi. Tadqiqotda quyidagi uchta metod integratsiya qilindi:

3I Metodi (Ilmiy savol qo'yish – Izlanish – Ishlab chiqish).

O'quvchilar uch bosqichda ishlaydilar:

- ilmiy savol qo'yish – real hayotga oid muammolar asosida mazmunli ilmiy savollarni shakllantirish;
- izlanish – tajribalar o'tkazish, dalillar yig'ish va natijalarni tahlil qilish;
- ishlab chiqish – olingan natijalar asosida yangi yechimlar, modellar yoki izohlarni ilgari surish.

Ushbu metod o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib, bilimlarini amalda qo'llashga imkon berdi.

Tabiiy fanlardan misol (Biologiya, 8-sinf):

- ilmiy savol qo'yish – "Nima uchun xona o'simliklari yorug'likka qarab o'sadi?";
- izlanish – o'quvchilar o'simliklarni turli sharoitlarda (yorug'lik bor va yo'q joyda) kuzatadi, fotosintez jarayonini tushuntiruvchi nazariyani o'rganadi;
- ishlab chiqish – o'z kuzatuvlari asosida kichik loyiha taqdim etadilar: "O'simliklarning yorug'lik manbaiga yo'nalishi – fototropizm hodisasi."

"Savollar piramidasi" metodi o'quvchilarga turli kognitiv darajadagi savollarni shakllantirishga yordam beradi, ya'ni faktlarga asoslangan savollardan tortib, murakkab tahliliy va baholovchi savollargacha. Piramida orqali savollar asta-sekin chuqurlashib, o'quvchilarni ilmiy izlanishga yaqinlashtiradi va mustaqil tadqiqot olib borishga yo'naltiradi.

Tabiiy fanlardan misol (Kimyo, 7-sinf):

oddiy savol – osh tuzi nimadan iborat?;

izohli savol – nega osh tuzi suvda eriydi?;

tahliliy savol – tuz eritmasi elektr tokini o'tkazishi mumkinmi? nega?;

tadqiqot savoli – tuzli eritmaning o'tkazuvchanligini qanday tajriba orqali isbotlash mumkin? Shu orqali o'quvchilar nafaqat faktlarni biladi, balki chuqurroq ilmiy tadqiqot olib borishga o'tadi.



“Bilim ko‘prigi” metodida esa o‘quvchilar ilgari o‘zlashtirgan tushunchalarni yangi bilimlar bilan bog‘lash uchun guruhli muhokama va muammoli topshiriqlarni bajarishadi. “Bilim ko‘prigi” qurish orqali ular turli tabiiy fan mavzulari o‘rtasida mantiqiy aloqalarni o‘rnatib, bilimni chuqurroq o‘zlashtirish va uni real vaziyatlarda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar. Mazkur metodlar uyg‘unligida o‘quvchilarning nafaqat tadqiqotchilik ko‘nikmalari, balki tabiiy fanlarni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya va qiziqishi ham sezilarli darajada oshadi.

Tabiiy fanlardan misol (Fizika, 9-sinf):

- eski bilim (boshlang‘ich nuqta) – o‘quvchilar og‘irlik kuchi haqida biladi;
- yangi bilim (ko‘prik) – erkin tushish tezlanishi, jismning havoda va vakuumda tushishi;
- amaliy bog‘lanish – o‘quvchilar qog‘oz va toshni tushirib ko‘rishadi, keyin vakuum haqidagi videoni tahlil qilishadi;
- xulosa – har qanday jism vakuumda bir xil tezlikda tushishi tushuntiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘rovga asoslangan metodlar: “3I modeli”, “Savollar piramidasi” va “Bilim ko‘prigi”dan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini rivojlantirishda sezilarli natijalar beradi. O‘quvchilar mazmunli ilmiy savollar qo‘yish va oddiy tajribalar loyihalashda faolroq bo‘la boshlaydilar. 3I modeli ularni oddiy kuzatuvdan tizimli tadqiqot va dalillarga asoslangan xulosalargacha olib boradi, Savollar piramidasi o‘quvchilarni sodda faktlardan murakkab, tahliliy va tadqiqotga yo‘naltirilgan savollargacha ko‘tarilishiga yordam beradi, Bilim ko‘prigi esa avvalgi bilimlarni yangi tushunchalar bilan bog‘lab, tabiiy fanlarni izchil o‘rganish imkonini beradi. Umumiy natijada o‘quvchilar darslarga qiziqishi ortadi, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi va PISA tipidagi topshiriqlarga tayyorgarligi yaxshilanadi. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy fanlar ta‘limida tadqiqotga asoslangan metodlarni tizimli qo‘llash ilmiy savodxonlik uchun zarur bo‘lgan kognitiv va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “3I modeli”, “Savollar piramidasi” va “Bilim ko‘prigi” kabi tadqiqotga asoslangan metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu metodlar o‘quvchilarda ilmiy savollar qo‘yish, muammoni hal qilish, ma‘lumotlarni tahlil qilish va PISA tipidagi topshiriqlarga tayyorlanish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar izlanish va tadqiqot faoliyatiga faol jalb etilganda, ular tabiiy fan darslariga yanada qiziqish bildiradi va yuqori motivatsiya ko‘rsatadi. Demak, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. O‘qituvchilar tabiiy fanlar darslarida tadqiqotga asoslangan metodlarni tizimli qo‘llashlari zarur. PISA tipidagi topshiriqlarni keng qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilimni hayotiy vaziyatlarga bog‘lash tavsiya etiladi. O‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlarga alohida e‘tibor berilishi lozim. O‘quv dasturlarida ilmiy-tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriq va loyihalarni majburiy element sifatida kiritish zarur. Kelgusida tadqiqotlar ushbu metodlarning xalqaro baholashlardagi natijalarga uzoq muddatli ta‘sirini o‘rganishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismailov A., Tog‘ayeva G. va boshqalar. (2019). Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019-yil.
2. Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. Arlington, VA: NSTA Press.
3. Harlen, W. (2010). Principles and Big Ideas of Science Education. Hatfield: Association for Science Education.
4. OECD. (2019). PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/b25efab8-en>
5. OECD. (2020). PISA 2018 Results (Volume VI): Are Students Ready to Thrive in an Interconnected World? Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/d5f68679-en>
6. Pedaste, M., Mäeots, M., Siiman, L. A., de Jong, T., van Riesen, S. A. N., Kamp, E. T., ... & Tsourlidaki, E. (2015). Phases of Inquiry-Based Learning: Definitions and the Inquiry Cycle. Educational Research Review, 14, 47–61. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2015.02.003>
7. Rocard, M., Csermely, P., Jorde, D., Lenzen, D., Walberg-Henriksson, H., & Hemmo, V. (2007). Science Education Now: A Renewed Pedagogy for the Future of Europe. Brussels: European Commission.
8. Tytler, R. (2007). Re-imagining Science Education: Engaging Students in Science for Australia’s Future. Camberwell, Victoria: Australian Council for Educational Research.
9. Zohar, A., & Barzilai, S. (2013). A Review of Research on Metacognition in Science Education: Current and Future Directions. Studies in Science Education, 49(2), 121–169. <https://doi.org/10.1080/03057267.2013.847261>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.